

O‘SMIRLIK DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Andijon davlat pedagogika instituti
“Tabiiy fanlar” fakulteti “Kimyo” yo‘nalishi
1-bosqich talabasi *Muminjonova Zilolaxon Nasirillo qizi*.

Annotatsiya: Maqolada O‘smirlik davrida psixik rivojlanish holatlari, o‘smirlarning o‘tmishdoshlariga nisbatan holatlari, o‘smirlik yoshiga o‘tish, xarakterlari og‘irlashib borishi, psixik rivojlanishida nuqsonlar, xarakterlari tez o‘zgarib qolishi va o‘sish davrida qizg‘onchiq bo‘lib qolishi haqida gap boradi.

Kalit so‘zlar: Psixik rivojlanishdagi inqiroz, organizm to‘qimalarining o‘sishi, ijtimoiylashuv jarayoni, ijtimoiy tafakkur, o‘smirning rivojlanishi, psixik rivojlanish davri, jinsiy yetilish, psixik taraqqiyot.

Abstract: In the article, the conditions of mental development during adolescence, the conditions of adolescents in relation to their predecessors, transition to adolescence, worsening of character, defects in mental development, it is said that their characters change quickly and become hot during the growth period.

Key words: Crisis in mental development, growth of body tissues, socialization process, social thinking, adolescent development, period of mental development, sexual maturity, mental development.

Аннотация: В статье рассмотрены условия психического развития в подростковом возрасте, состояние подростков по отношению к своим предшественникам, переход в подростковый возраст, ухудшение характера, дефекты психического развития, Говорят, что их характеры быстро меняются и становятся горячими в период роста.

Ключевые слова: Кризис психического развития, роста тканей организма, процесс социализации, социальное мышление, развитие подростков, период психического развития, половая зрелость, психическое развитие.

Kirish: O‘smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sish oldinroq namoyon bo‘lmoqda. Aksariyat o‘quvchilarda o‘smirlik yoshiga o‘tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. “Endi o‘smir bola emas, biroq katta ham emas” ayni shu ta’rif o‘smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O‘smirlik – bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib, fiziologik va psixologik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xakteri shakllanadi, ma’naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O‘smirlik balog‘atga yetish davri bo‘lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarni paydo bo‘lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlardir. Bo‘yga o‘sish bir tekis bormaydi: qiz-bolalarda 5-7 sm o‘ssalar, o‘g‘il bolalar 5-10 sm o‘sadilar. Bo‘yga qarab o‘sish paysimon ilk suyaklarning uzunlashishi va umurtqa qismining kattalashishi hisobiga ro‘y beradi. Og‘iz bo‘shlig‘i va halqumdagi o‘zgarishlar oqibatida tovush tembri ham o‘zgaradi. Bu o‘g‘il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko‘proq darajada sodir bo‘ladi. O‘g‘il bolalarning tovushi vazminroq bo‘lib qoladi, do‘rillaydi. Garchi bu davrda mushaklar tez sur‘at bilan o‘ssa ham, mustahkamlashsa ham, lekin baribir oyoq va qo‘l suyaklarining o‘sish sur‘ati orqada qoladi. O‘smirlarda bu xususiyat ularning beso‘naqay xatti – xarakatlarida, yurish – turishlaridagi qo‘pollikka, katta – katta odim qadam tashlashlariga sabab bo‘ladi. Fiziologik o‘zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan

bog‘liq ravishda tanadagi barcha a‘zolarining mukammal rivojlanishi va o‘sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllasha boshlashida namoyon bo‘ladi. Organizmdagi o‘zgarishlar bevosita o‘smir endokrin sistemasining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Bu davrda ichki sekretsiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to‘qimalarining o‘sishi va muhim ichki sekretsiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak usti bezi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo‘y o‘sishi tezlashadi, jinsiy balog‘atga yetish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo‘lishi) amalga oshadi. Ko‘krak qafasi ham gavdaning bo‘y o‘shiga nisbatan sekin rivojlanadi. Buning natijasida ayrim o‘smirlarning yelkasi, ko‘kragi tor bo‘lib qoladi, bu esa o‘z navbatida kislorod yetishmasligiga, nafas qisishiga olib keladi. Kislorod yetishmasligi natijasida ruhiy faoliyatga putur yetadi. Bu davrda yurak kengayishi bilan qon tomirlari ham yog‘onlashadi. Qon aylanish sistemasining qayta qurilishi, vegetativ nerv sistemasidagi barqarorlik qon aylanishini buzadi va o‘smirda ba‘zi qon bosimining ortishi ro‘y beradi.

Bu davrda ayniqsa jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi. O‘smirda ro‘y beradigan biologik-jismoniy o‘zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. O‘smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo‘lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo‘lmaydi. Jinsiy yetilish o‘smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta‘sir ko‘rsatib, bu ta‘sir bevosita emas, balki ko‘proq bilvositadir. O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma‘lum darajada o‘rtoqlari va o‘qituvchilariga ko‘rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy kuzatish yo‘li bilan ham osongina ko‘rish mumkin. O‘smirlik davri “o‘tish davri”, “krizis davr”, “qiyin davr” kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki, bu yoshdagi o‘smirlarning xatti-harakati muqobil, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olamaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O‘z davrida L.S.Vigotskiy bunday holatni “psixik rivojlanishdagi inqiroz” deb nomlagan. Kichik maktab davridan so‘ng bola alohida olingan shaxs sifatida o‘z-o‘ziga munosabatini shakllantirish jarayonida asosan ikki xil davrga – kichik o‘smirlik davri va katta o‘smirlik davriga to‘g‘ri keladi. Birinchi bosqichda o‘smir o‘zini “bola”lardan ajratib, endi o‘zini kattalar olamiga mansubligini ta‘kidlamochidek bo‘ladi. Kattalar hayotiga kirishga qiziqish o‘smirlarning asosiy xarakteristikasi hisoblanadi. Bu davr uchun kattalarning xatti – harakatlariga taqlid qilish va o‘zining mana shu yarashmagan qiliqlariga tanqidiy baho bera olmaslik, uning katta yoshli kishilarga yaqin bo‘lishi, yordam berayotgan bir guruh tengdoshlari bilan ortiq darajada bog‘liq bo‘lib qolishi va shu singari holatlar xarakterlidir. Ikkinchi bosqichda o‘smir endi o‘zining yosh bola emasligiga shubha qilmaydi va o‘zligini aniq anglay boshlaydi, o‘z shaxsini ulug‘lab, o‘ziga xos harakatlar qila boshlaydi. O‘smirlarni o‘z shaxslari haqidagi fikrlari ko‘proq qiziqtiradi, ular o‘zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. O‘smirlik davrida ichki erkinlikning o‘shida, o‘z - o‘zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti – harakatlarida katta sifat o‘zgarishlari yuz beradi.

O‘smirlik yoshi dunyoqarash, e‘tiqod, prinsip, o‘zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlari shakllanadigan davr hisoblanadi. O‘smir ulg‘aygan sari unda “Ideal Men”, “Axloqiy Men” va “Haqiqiy Men” singari shaxsga oid tizim dunyoqarash, e‘tiqod va boshqalar shakllana boradi, undagi o‘zi to‘g‘risidagi tasavvurlar ancha aniq va barqaror bo‘lib qoladi. O‘smir o‘z faoliyatini muayyan prinsip, e‘tiqod va shaxsiy nuqtayi nazari asosida tashkil qila boshlaydi. O‘smir shaxsini tarkib toptirishda uning atrof – muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologlar o‘tkazgan tadqiqotlardan ko‘rinadiki, o‘zmirlarning ko‘pchiligi qat‘iyatlilik, kamtarlik, mag‘rurlik, samimiylilik, dilkashlik kabi ma‘naviy, axloqiy tushunchalarni to‘g‘ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasidafan asoslarini egallash natijasida barqaror e‘tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. Ma‘lumki, o‘smirlik

davrida o‘smirning “men”i qaytadan shakllana boradi. Uning atrofdagilari ayniqsa, o‘z - o‘ziga bo‘lgan munosabati, qiziqishlari, qadriyatlarini yo‘nalishi keskin o‘zgaradi. O‘smir yoshdagi bolani birinchi galda intilishi, u o‘zini endi kichkina bola emas, balki katta bo‘lib qolganligini atrofdagilarga ishonitirishdan iboratdir. Mustaqil ishlar qilishga uringan o‘smir shunday qilishga haqqi borligiga o‘zini - o‘zi ishonitiradi, chunki men endi “katta bo‘lib qldim” deb o‘ylaydi. Shuning uchun ham psixologlar “katta bo‘lib qolganlik tuyg‘usi”ni shaxsning o‘smirlik yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar. L.S.Vigotskiy o‘smirlik davrida qiziqishlarning o‘zgarishiga bog‘liq ravishda ikki fazani (salbiy va ijobiy) ajratib ko‘rsatgan. Salbiy faza ilgari qiziqishlarning so‘nishi va yangi dastlabki jinsiy qiziqishlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Bunda quyidagi salbiy xulq – atvor ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi: ish qobiliyatining, o‘zlashtirishning pasayishi, o‘smirning qo‘polligi va yuqori qo‘zg‘aluvchanligi, uning o‘zidan qoniqmasligi va xavotirlanish va boshqalar.

Ijobiy faza keng, chuqur yangi qiziqishlarning paydo bo‘lishi bilan xarakterlanadi. O‘smirda boshqalarning va o‘zining psixologik kechinmalariga qiziqish paydo bo‘ladi. O‘smirlik davridagi inqiroz - o‘smir kechinmalari, uning strukturasi, mazmunining qat‘iy o‘zgarishi, buzilishidir. L.S.Vigotskiy 13 yoshni inqirozni sindiradigan nuqtasi deb atagan. Inqirozdan keyingi davrlar (14-15 yosh) ota – onalar va o‘qituvchilar tomonidan subyektiv yanada qiyinroq deb ataladigan yangi psixologik tuzilmalar shakllanadi. Inqirozning kechishi kattalarning o‘sayotgan boladagi o‘zgarishlarni sezuvchanligiga, tarbiya taktikasini mohirona o‘zgartirishiga, o‘smirning yangi ehtiyojlari, yangi qobiliyatlariga bog‘liq ravishda munosabatlarni o‘zgartirishga bog‘liq. Sog‘lom o‘smirlarga ham kayfiyatning beqarorligi, depressiv kechinmalar, tez ranjish va boshqalar xos. G.V.Xrulnovaning fikricha, o‘smirlarning stressli vaziyatlardan chiqish malakalarining mavjud emasligi somatik, emotsional, xulq – atvor, kognitiv, shaxsiy bosqichda ma‘lum darajada stressdan keyingi buzilishlarni vujudga keltiradi. U o‘smirlarda stress reaksiyalarini vujudga kelishiga oiladagi, tengdoshlari va kattalar bilan shaxslararo munosabatlar jarayonidagi muammolar, travmatik malaka sabab bo‘ladi, deb hisoblaydi. O‘quvchilarda emotsional barqarorlik va uning shakllanish masalalariga e‘tiborini qaratgan M.G.Davletshinning shogirdi G.A.Bogdalova emotsional barqarorlik xususiyatlari tarkibi, mexanizmlarini hamda uning o‘smirlik yoshidayoq shakllanish imkoniyatlari va prinsiplarini o‘rgangan. G.A.Bogdalova tadqiqot natijalariga asoslanib, emotsional barqarorlikni quyidagi jarayonlarning natijasi sifatida ko‘rsatadi:

- a) xulq – atvor barcha emotsiyalarning e‘tiborsiz namoyon etilishi;
- b) emotsiyalarning osonlik bilan, silliqqina bir holatdan ikkinchi holatga ko‘chirilishi;
- c) kishining o‘z xulq – atvoriga mustaqil baho berishi.

O‘smirlik davri xususiyatlari va emotsional o‘zgarishlarni tadqiq etish B.M.Umarov ishlarida ham ko‘rinadi. U bolalar hamda o‘smirlar suitsidining yosh va ijtimoiy – psixologik xususiyatlarini yoritib bergan bo‘lib, olimning fikricha, o‘qituvchi o‘quvchi hamda oila a‘zolari o‘rtasidagi shaxslararo nizolar, “sevgi – muhabbatga bog‘liq bo‘lgan nizolar”, “qo‘rquv”, “his – hayajon”, “g‘am - g‘ussa” va yosh davri “inqirozlari” bolalar, o‘smirlar suitsidining asosiy sabablari bo‘lib hisoblanadi.

Z.Nishanova o‘z izlanishlarida ijodiy tafakkurning ijtimoiy tafakkurga ta‘sir etuvchi ijtimoiy psixologik omillarni o‘rganadi. Z.T.Nishanovaning ta‘kidlashicha, mustaqil ijodiy fikrlash darajasi yuqori shaxslar o‘zlarini noadekvat baholaydilar. Guruh muhitida tan olingan a‘zolari o‘zlariga guruhiy baholashga nisbatan quyi baho beradilar, lekin ularda mustaqil ijodiy fikr yuqori ko‘rsatkichga ega. Guruhdan ajralib qolgan a‘zolar esa guruhiy baholashga nisbatan o‘zlarini yuqori baholaydilar, biroq ularda mustaqil, ijodiy fikr ko‘rsatkichi quyi rivojlangan. O‘smir o‘quvchilarning aqliy rivojlanish xususiyatlarini tadqiq

etgan T.S.Jo’rayev aqliy taraqqiyotini ro’yobga chiqaruvchi asosiy omil sifatida o’quv faoliyatining umumlashgan usullarini ko’rsatadi. Muallifning fikricha, o’quvchilarning yoshi va saviyasi orta borishi bilan murakkab usullarni yangi sharoitga ko’chirish uquvi ularda takomillashadi, usullarning ko’chish ko’lami kengayadi va fanlararo xususiyat kasb etadi, bu aqliy faoliyatning ko’rsatkichi bir xil emasligini ta’kidlab, bu xususiyat ularning saviyasiga, topshiriqni yechish motivatsiyasiga bog’liqligini aytib o’tadi. Muallif ta’lim jarayonida o’smir o’quvchilarda aqliy faoliyat usullarini shakllantirish shaxs aqliy kamolotini ta’minlashning muhim mezonini deb hisoblaydi.

Xulosa: O’smirlarning o’z-o’zini anglashda sifat jihatidan o’zgaradi. O’zi haqida o’ylash, o’zini boshqalar bilan taqqoslash o’smirlarda kuzatiladigan holatlardan biri hisoblanadi. O’smirlik davrida bola juda injiq va tanti bolib ovozlari o’zgarib qoladi. O’zini kattalarga taqlid qilib ularga o’xshab yurishni boshlashadi, o’zlariga yarashmaydigan qiliqlarni qila boshlashadi. Ijobiy faza keng, chuqur yangi qiziqishlarning paydo bo’lishi bilan xarakterlanadi. Bunda quyidagi salbiy xulq – atvor ko’rinishlari namoyon bo’ladi: ish qobiliyatining, o’zlashtirishning pasayishi, o’smirning qo’polligi va yuqori qo’zg’aluvchanligi, uning o’zidan qoniqmasligi va xavotirlanish va boshqalar. O’smir bolalarda men degan tushuncha kuchayib o’z teng qurlariga taqlit qila boshlaydi, baholangi bolada psixik va ongliy xarakterlari o’zgara boshlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Do’stmuxammedova Sh.A., Tillashayxova X.A., Baykunosova G.Y., Ziyavitdinova G.Z., “Yosh davrlari va pedagogik psixologiya”-Darslik Toshkent. Nizomiy nomidagi TDPU, 2021y.
2. Ivanov I., Zufarova M. “Umumiy psixologiya”. O’z.FMJ., 2008.
3. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”.T “Fan va texnologiya” markazining bosmaxonasi: 2009.